

# Sayyor qabul Surxondaryo viloyatida

**2022 3 March**

2022-yilning 3-mart kuni Termiz shahrida “Uzbekistan Airways” Aksiyadorlik jamiyati tomonidan navbatdagi sayyor qabul tashkil etildi. Unda aviakompaniya, transport, turizm va madaniy meros hududiy boshqarmasi vakillari bilan birgalikda aviachiptalar sotuvi bo‘yicha agentlar va jismoniy shaxslar, sayyohlik kompaniyalari, yoshlar, OAV va blogerlar ishtirok etdi.

Tadbir ishtirokchilariga “Uzbekistan Airways” aviakompaniyasining 30-yillik faoliyati davomida O‘zbekiston fuqaro aviatsiyasi sohasida katta yutuqlarga erishgani haqida ma’lumot berildi. Aviaparkni Boeing va Airbus kabi yangi zamonaviy havo kemalari bilan to‘ldirishi parvozlarni geografiyasini kengaytirish va yo‘lovchilarga sifatli xizmat ko‘rsatish imkoniyatidir.

Bundan tashqari, bugungi kunda har bir yo‘lovchi parvozdan keyin aviakompaniya tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlarni shaxsan baholashi mumkinligi qayd etildi. Bunda ularga “Maxfiy yo‘lovchi” dasturi yordam beradi. Bu dasturdan barcha yo‘lovchilar foydalanishlari mumkin.

Bu borada ushbu sayyor qabulda ham yo‘lovchilar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarish, himoya qilish va kafolatlash borasida aniq manzilli ishlar amalga oshirilayotganligi to‘g‘risida ma’lumot berildi.

Usmonali Normatov, “Surxon tongi” jurnalisti:

– Avval Sariosiyo aeroportidan uchib ketganimizni eslayman. Aviakompaniya parvozlarni amalga oshirishni rejalashtirganmi va umuman bu aeroportni ta’mirlash rejada bormi?

Va ikkinchi savol: nima uchun faqat talabalarga ta’tillarda imtiyozlar beriladi, bu aksiyani yil davomida uzaytirsam bo‘ladimi?

Faol jurnalistning birinchi savoliga Surxondaryo viloyati transport boshqarmasi vakillari javob berishdi – Sariosiyo aeroportini ta’mirlash 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan rejaga kiritilgan.

Aziz Muxamedjanov, yo'lovchi tashish boshqarmasi boshlig'i:

- Toshkentdan muntazam parvozni amalga oshirish borasida - agar talab mavjud bo'lsa, biz tayyormiz, albatta, xalqaro aviatsiya talablarini inobatga olgan holda.

Talabalarga beriladigan imtiyozlar - bu faqat biz bilan emas, balki bir nechta vazirlik va idoralar bilan birgalikda hal qilinishi kerak.

"Qizlar ham uchuvchi bo'lishi mumkinmi?" deb savol berdi talaba qizlardan biri majlislar zalidan. Forruxo'ja Yaxyaev, parvoz xizmati departamenti direktorining o'rinbosari batafsil javob berdi. "Bugungi kunda aviakompaniyamizda ayol uchuvchilar yo'q. Agar kimdadir ushbu kasbga qiziqish bo'lsa, biz faqat xursand bo'lamiz. Yaqinda biz yangi kadrlarni tayyorlash va ishga olishni rejalashtirmoqdamiz".

Ta'kidlash joizki, bir necha Osiyo mamlakatlaridan to'g'ridan-to'g'ri Termizga kelish va qaytish qatnovlarini ochish bo'yicha ko'plab takliflar kelib tushdi Bu ziyorat turizmi rivojiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, Rossiya Federatsiyasining mashhur shaharlariga charter reyslarini amalga oshirish bo'yicha takliflar mavjud.

Sayyor qabul doirasida yo'lovchilarni qiynayotgan muammolar bo'yicha savol-javob tariqasida ishtirokchilar bilan muloqot qilinib, aholining murojaatlari atroflicha o'rganib chiqildi. Murojaatlarning aksariyat qismi joyida yechimini topdi, qo'shimcha o'rganish va vaqt talab qiladigan murojaatlar bo'yicha mas'ul rahbar va xodimlarga tegishli topshiriqlar berildi.

Uzbekistan Airways aviakompaniyasi ushbu xalq bilan uchrashuvlarni har bir viloyatda uyushtirib, yo'lovchilarni qiynayotgan savollarga yechim topib, ularni taklif-mulohazalarini o'rganishda davom etadi.